

Oybek Kopadze,

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

*“Ovoz rejissyorligi va operatorlik
san'ati” kafedrasining dotsenti v.b.,*

San'atshunoslik fanlari nomzodi

REJISSURA VA AKTYORLIK MAHORATINING ISTIQBOLIDA XORIJIY IJODKORLAR BILAN HAMKORLIK FAKTORI

Annotatsiya. *Ushbu maqola o'zbek teatrlarimizning texnikasidan tortib, ijodiy jamoasigacha yuqori saviyada bo'lishi, san'atimizni jahon andozalariga mos ravishga yuqori cho'qqilarga olib chiqishi, innovatsion yangiliklarni olib kirishi – teatrlarimizning istiqbolidagi eng muhim vazifalardan biri ekanligi haqida.*

Kalit so'zlar: *texnologiya, kinematograf, innovatsion, rejissura, teatr istiqboli, shakl va mazmun, repertuar, memorandum, artist, festival, hamkorlik, spektakl konsepsiyasi.*

Аннотация. *Эта статья посвящена тому, что одной из важнейших задач на будущее наших театров является достижение высокого уровня, от технического оснащения до творческого коллектива, подъем нашего искусства на вершины, соответствующие мировым стандартам, и внедрение инноваций.*

Ключевые слова: *Технология, кинематограф, инновационный, режиссура, перспективы театра, форма и содержание, репертуар, memorandum, артист, фестиваль, сотрудничество, концепция спектакля.*

Abstract. *This article discusses the importance of raising Uzbek theaters to a high level, from technical equipment to creative teams, aligning our art with global standards, and introducing innovative novelties. This is one of the most important tasks for the future of our theaters.*

Keywords: *mechnology, cinematography, innovation, directing, theater prospects, form and content, repertoire, memorandum, actor, festival, collaboration, play concept*

Teatr san'ati dunyoga kelibdiki, undagi yangilanish jarayoni tinimsiz rivojlanib kelmoqda. San'atning qoidalaridan biri ham aynan yangilanishni, o'zgarishni, ya'ni innavatsion munosabatlarni o'zlashtirgan holda faoliyat olib borishini talab qiladi. Takrorlanadigan san'at asari, ya'ni zamonaviy terminda aytganda, kopiya yoki plagiatlik yo'li bilan "ijod" qilish, o'z-o'zidan yangilanishga, o'zgarishga qarshi, to'siq, baryer bo'lish bilan birga, haqiqiy ijodiy jarayonni to'xtatilishiga olib keladi.

Eramizdan avvalgi V asrda dunyoga kelgan qadimgi yunon teatr san'ati, o'zining davri uchun olamshumul voqea bo'lgani shubhasiz. Teatr dramaturgiyasining asoschilaridan Sofokl, Aristofan, Yevripid, Esxil o'sha paytdagi madaniy-ma'rifiy, hatto siyosiy muhitga juda katta ta'sir ko'rsatganligini ham e'tirof etish kerak. Muxtasar qilib aytganda, teatr san'ati turli davrlarda innavatsion kuch bo'lib, yangicha fikr, g'oya beruvchi obyekt bo'lgani ham bir aksiomadir.

XX asrga kelib texnologiyada katta o'zgarishlarning vujudga kelishi, dunyodaga siyosiy-iqtisodiy jarayonlarga ulkan ta'sir ko'rsatdi. Oqibatda yangi san'at turlari dunyoga keldi. Oldiniga kinematograf, keyinchalik televideniye barcha san'at turlarining rivojlanishiga innovatsion ta'sir ko'rsadi. Avvaliga teatr san'atining kinematografga ta'siri katta bo'lgan bo'lsa, keyinchalik, ovozli filmlarning paydo bo'lishi bilan, kinematografning teatrga ta'siri kuchaydi. Ayniqsa, rejissura va aktyorlik san'atida kino va teatr bir-birini to'ldirishga, bog'liqlikka olib keldi. Kino san'atidagi innavatsion yangilanishlar, o'zgarishlar teatr san'atining rivojlanishiga, ravnaq topishiga o'z ta'sirini ko'rsata boshladi.

Misol qilib, XX asrning 20-yillari K.Stanislavskiy boshlab bergan teatr reformasining mevasi bo'lib teatr sohasida olamshumul yangilanishlarga olib kelganini ta'kidlash mumkin. Bu jarayonda bir birlarini takrorlamaydigan, hatto

kezi kelganda, inkor etadigan, o'ziga xos teatr maktablarini yarata olgan: Vaxtangov, Meyerxold, Mardjanashvili, Tairovlarni e'tirof etish joizdir. Meyerxold maktabidan chiqqan rejissyor S.Eyzinshteyn, ko'p o'tmay kino san'atida reformalarni davom etib, kinematografni yangi, innavatsion pag'onaga olib chiqdi. Aynan uning o'sha yillari yaratgan "Bronenosets Potomkin" filmi hozirgacha kino olamida ijodkorlarga o'rnak bo'lib kelmoqda.

Kinematograf va teatr san'atining rivojlanishida albatta, avvalo rejissura va aktyorlik san'atining o'zaro hamjihatligi, ijodiy hamkorligining darajasi, saviyasi yotadi. Agar teatr haqida fikrimizni rivojlantiradigan bo'lsak, rejissura san'atini birlamchi ekanligini ta'kidlashimiz kerak. Meyerxoldning rejissurani ulug'lovchi mashhur bir iborasini misol qilib keltirish kifoyadir: "Menga, rejissyor sifatida telefon kitobini bersangiz, men sizga ajoyib spektakl sahnalashtirib beraman" degan yarim hazil, yarim chin so'zlari haqiqatdan yiroq emas. Telefon kitobi ism-sharif, adres va raqamlardan iborat bo'lishiga qaramay, aktyorlar orqali rejissuraga asoslanib spektakl yaratish mumkinligi haqida taniqli rejissyor fikr bildirgan.

Haqiqatdan ham rejissyorning teatr istiqbolini belgilashda juda katta o'rni borligini ta'kidlash kerak. Yaqingacha biron-bir e'tiborga loyiq teatr haqida gapirganimizda uning bosh rejissyori yoki badiiy rahbarini nomini tilga olardik. Masalan, Rossiyadagi BDTni Tovstanogov teatri, MXATni Yefremov teatri, LENKOMni Zaharov teatri yoki O'zbekistonda B.Yo'ldoshev, O.Salimov, N.Abdurahmonov teatrlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Hozirda esa Yevropadagi ko'plab teatrlar nomini bosh rejissyor bilan bog'langanligi ham e'tiborga loyiq. Yuqoridagi fikrlarni muxtasar qilib aytganimizda, teatr san'atidan rejissura domo birlamchi bo'lgan va bundan keying ham eng muhim yo'nalish bo'lib kelishi muqarrar.

Demak, rejissura teatrning yuragi, generatori, lokomotivi ekan, teatrning istiqboli, rivojlanishi ham aynan shu kasb egalarining qobiliyati, saviyasi, dunyoqarashi, fikrlash doirasi, bilm va ilmiga bog'liq bo'ladi. Yuqorida ta'kidlaganday, barcha sohalar singari teatr san'ati ham yangilanish, o'zgarish jarayonlarini o'z boshidan o'tkazib kelmoqda. Shunday ekan, teatr sohasidagi

innovatsion yondashuv avvalo rejissuradan boshlanishi tabiiy holdir. Agar bugungi O'zbekiston teatrlaridagi ayrim ijodiy muammolarni tahlil qilib ko'rganimizda ham, aynan rejissuraning talab darajada emasligini, ijodiy jarayonga innovatsion yondashuvning yetishmasligi, yangicha fikr, shakl va mazmunning yo'qligi, sayozligi ko'zga tas'halanadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz teatrlarning innovatsion rivojlanishi, yangi yuqori pag'onaga ko'tarilishi, jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini topishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilib kelmoqda. Hozirda teatrlarmizning qiyofasi o'zgarib, yangicha tus olmoqda, ba'zi bir teatrlarning repertuarlari zamonaviy bo'lishida harakatlar qilinmoqda, xorijiy hamkorlik, chet elga safarlarni tashkil etishda ham bir muncha o'zgarishlar sezilmoqda. Deyarli barcha teatrlar direktorlari xorijiy hamkasblari bilan ko'plab memorandumlar imzolashmoqda.

Lekin baribir, bir qator teatrlarimizdagi ijodiy muhit, aktyorlarning o'z ustida ishlashi, jismoniy va ruhiy hozirligi talab darajasida emas. Ba'zi artistlarimiz qayerda faoliyat ko'rsatayotganliklarini oxirigacha tushunmaydilar va o'zlarini xuddi biron-bir ishlab chiqarish korxonasiga kelib-ketganday tutishlari achinarli holdir. Bir qator teatrlarimizning ijodiy potensiali shunday achinarli holatga tushib qolishida, avvalo bosh rejissyorning ma'suliyatsizligi, o'z vazifasini sidqidildan amalga oshirmasligi, ba'zi hollardan nima qilish kerakligini ham bilmasligidandir.

Azaldan ma'lumki, barcha muammolarni ijobiy hal qilish uchun sohani yaxshi bilish, o'rganish, doimo bilim olish bilan mashg'ul bo'lish kerak. Teatr sohasida esa, ijodkorlar doimo sohaga taalluqli adabiyotlarni o'qish, tahlil qilish, mashhur spektakllarni tomosha qilishi va imkoni boricha ko'proq festivallarda ishtirok etishga harakat qilishi lozim. Bugungi kunda internet tizimi barcha sohalarda ma'lumot olish uchun juda yaxshi imkoniyat, lekin rejissyorlarimiz bunday fursatdan kerakli darajada foydalanishmayotgani, tillarni bilmasliklari ham achinarli holatdir.

Yevropa teatrlari o'zlarining ijodiy rejalarida, yilida kamida besh-olti xalqaro teatr festivallarida ishtirok etishni, hamda gastrollar tashkilashtirishni

bosh vazifa deb belgilashadi. Bundan tashqari xorijdan teatrlariga rejissyor va boshqa ijodkorlarni hamkorlikda ijod qilishni ham muhimligini hisobga olishadi. Turli rejissura, aktyorlik maktablarini o'rganish uchun bunday hamkorliklar ayni muddaodir.

Agar bizni teatrlarimizning xalqaro aloqalar rejasiga qarasak, ko'p hollarda bunday rejaning o'zi yo'qligiga guvoh bo'lamiz. Vaholanki, bu ishlar bilan ham teatrning bosh rejissyori shug'ullanishi darkor. To'g'ri, ba'zi bir teatrlar bu borada ma'lum bir yutuqlarga ega va innovatsion rivojlanish yo'llarini qidirishda izlanishmoqda. Axir teatrning innovatsion rivojlanishida xalqaro aloqalar muhim o'rin tutishi sir emas, jamoaning yuqori saviyaga ko'tarilishida, aktyorlarning mahorati kuchayishida, dunyo qarashi, fikrlash doirasi kengayishida aynan xalqaro loyihalarning o'rni juda muhimdir.

Bugungi kunda innovatsion rivojlanishda olib borilayotgan ishlar, harakatlarni Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatri misolida tahlil qilishimiz mumkin. So'nggi to'rt yilni oladigan bo'lsak, Qarshi teatri juda katta ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Teatrga Portugaliya, Gruziya, Ruminiya, Turkiya davlatlarida rejissyorlar kelishib, spektakllar sahnalashtirishdi. O'z o'rnida xorijlik rejissyorlarning bu spektakllari orqali aktyor, rejissyor, rassom, musiqa, yorug'lik va ovoz sexlarining yangicha ishlashga undaydi. So'nggi yillar Qashqadaryo viloyat teatri yiliga uch-to'rt xorijiy davlatga borib, o'z spektakllarini festival va gastrollarda namoyish etishmoqda. 2025-yili xalqaro aloqalar rejasiga asosan Ispaniya, Turkiya va Italiyadan rejissyorlar Qarshi teatri spektakllar sahnalashtirishi reja qilingan. Xuddi shunday bir qator xorijiy festivallar ham rejada o'rin olgan. Jumladan, ushbu teatr Portugaliya, Turkiya, Ruminiya, Makedoniya, Italiyadan festivallarda ishtirok etish uchun taklifnomalar olgani ham e'tirofga loyiqdir.

Festivalga borgan teatr aktyorlari u yerdagi boshqa davlatlardan kelgan hamkasblarining ijodi bilan tanishadi, jahon teatr san'atidagi yangi tendensiyalar bilan o'rtoqlashadi, yangi do'stlar ortiradi. Eng muhimi o'z kasbiga, teatrga bo'lgan muhabbati va ishonchi ortadi. Turli davlatlardan kelgan rejissyorlar bilan

repetitsiyalar jarayonida yangicha ishlash, o'zga stilistika, rejissyor va aktyor orasidagi munosabatlarni o'rganishadi. Hozirda, Qashqadaryo teatrining aktyorlari O'zbekistondagi teatrlar ichida eng mahoratli, o'z ishiga sidqidildan yondashadigan, har qanday rejissyor bilan ishlash ko'nikmasiga egadirlar.

Xorijda rejissyorning kelishi ish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatish bilan birga, izlanish jarayonlariga innovatsion yondashadi. Spektaklning yuqori saviyada chiqishi uchun kerakli uskunalarni, sahna atributlarini, effekt beruvchi mashinalarni teatrga olib kelishni ham talab qiladi. Sahnada rejissyor spektakl konsepsiyasi va g'oyasidan kelib chiqib kerakli bo'lgan barcha muhitni yarata olishi uchun, zamonaviy innovatsion texnikadan unumli foydalanishga harakat qiladi. Oqibatda, sahnada qor yoki yomg'ir yog'ishi uchun kerak bo'lgan mashinalar, apparatlar xorijdan olib kelinadi. Yangi texnologiya, texnikaning bizlarning teatrlarimizga kirib kelishi ham davr talabidir.

Afsus bilan ta'kidlash mumkinki, bugungi kunda bir qator teatrlarimizdagi texnika, "tutun" chiqarishdan nariga borolgani yo'q. Agar teatrlarimiz har tamonlama rivojlanmas ekan, xorijiy rejissyorlarning kelishi ham mushkul bo'ldi, muammoga aylandi. Teatrlarimizning texnikasidan tortib, ijodiy jamoasigacha yuqori saviyada bo'lishi, jahon andozalariga mos ravishga olib chiqishi, innovatsion yangiliklarni olib kirishi – teatrlarimizning istiqbolidagi eng muhim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. К. С. Станиславского. Работа актера над собой.
2. Г. А. Товстоногова. Режиссура театра.
3. З. А. Ахмедова. Новые технологии в развитии театрального искусства.
4. О.О.Гордиенко, К. И. Олешкевич. Применение современных технологий в театральной деятельности.
5. А.В. Толшин. Воспитание творческих установок (инновации в театре и образовании).
6. Дж. Пискор. Иммерсивный театр.